

“O‘ZBEKISTON MOLIYAVIY NAZORAT TIZIMIDA AUDITORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI”

Xidirov F.G‘.

QarMII, Audit

mutaxassisligi magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekiston moliyaviy nazorat tizimida auditorlik faoliyatini tashkil etishning nazariy asoslari yuzasidan tadqiqot natijalari va mavjud muammolar, ularning yechimlari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: moliya, nazorat, audit, hisobot, standart.

ABSTRACT

This article describes the research results and existing problems and their solutions regarding the theoretical foundations of the organization of audit activities in the financial control system of Uzbekistan.

Key words: finance, control, audit, report, standard.

АННОТАЦИЯ

В данной статье описаны результаты исследования и существующие проблемы и их решения относительно теоретических основ организации аудиторской деятельности в системе финансового контроля Узбекистана.

Ключевые слова: финансы, контроль, аудит, отчет, стандарт.

KIRISH

O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo‘shilishi, yoxud xorijiy investorlar uchun qulay investitsion muhit yaratilishi, mahalliy ishlab chiqarish subyektlari va tadbirkorlarning manfaatlariga mos keluvchi moliyaviy nazorat tizimini shakllantirishda auditorlik faoliyatining o‘rni va ahamiyati katta. Chunki, auditorlik faoliyati nodavlat moliyaviy nazorat tarkibiga kirib, unda nafaqat hisob-kitob tizimining to‘g‘riligi tekshiriladi, balki, konsalting auditorlik professional xizmatlari ham ko‘rsatiladi. Ammo, tadqiqotlar ko‘rsatadiki, bugungi kunda milliy moliyaviy nazorat tizimida audit institutlari kutilgan darajada samarali tashkil etilmayapti. Tadqiqotlarimizga ko‘ra, sohadagi muammolarni hal qilish va audit faoliyatini samarali tashkil etish uchun moliyaviy nazorat tizimida auditorlik faoliyatini tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish va takomillashtirish dolzarb masala

hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARXI

Moliyaviy nazorat tizimida auditning tutgan oʻrni, ahamiyati, auditni tashkil etishning umumiy va ilmiy asoslari, xoʻjalik yurituvchi subyektlarda auditni tashkil etish va takomillashtirish masalalari xorijlik olimlardan A.F.Aksenenko, A.D.Sheremet, B.Nidlz, V.V.Ivashkevich, V.I.Tkach, J.Rishar, N.P.Kondrakov, P.P.Novichenkolar va respublikamiz olimlaridan A.K.Ibragimov, M.M.Toʻlaxoʻjayeva, N.Y.Joʻrayev, N.S.Sanayev, R.D.Doʻsmuratov, S.V.Vohidov, E.A.Akramov, H.N.Musayev, A.Usanov, K.B.Oʻrazovlarning ilmiy asarlarida oʻz ifodasini topgan. Biroq, nazariy manbalar tahlillaridan koʻrinadiki, ayni paytgacha mamlakatimizda moliyaviy nazorat tizimida auditni tashkil etishning ilmiy-nazartiy asoslarini takomillashtirish masalalari toʻliq tadqiq etilmagan.

TADQIQOT USULLARI

Tadqiqot usullari sifatida monografik kuzatuv, mantiqiy tafakkur, qiyosiy tahlil, solishtirish usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJAR

Milliy iqtisodiyotimizda auditorlik faoliyati xalqaro standartlarni hisobga olingan holda takomillashtirilmoqda. Xususan, auditning xalqaro standartlariga asosan, 2021 yil 25 fevralda qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati toʻgʻrisida”gi Qonunining maqsadi auditorlik faoliyatini tartibga soladigan hujjatlarni unifikatsiyalab va tizimlashtirib yagona normativ-hujjatga jamlashga qaratilgan. Ushbu qonunga koʻra, auditorlik faoliyati audit, sifat nazorati, tahliliy tekshiruvlar, ishonchni taʼminlaydigan topshiriqlar, turdosh xizmatlarning xalqaro standartlari asosida amalga oshiriladi. Tahlillar koʻrsatadiki, bugungi kunda moliyaviy nazorat tizimida auditorlik faoliyatining qamrovi hamda koʻlami yildan-yilga oshib bormoqda. Chunki, auditorlik faoliyati bu tadbirkorlik faoliyatiga hamda litsenziyalangan shartnomaviy-konsalting xizmatlariga asoslanganligi xoʻjalik yurituvchi subyektlarda tekshiruv jarayonlarida tekshiruvchi hamda mijoz korxona oʻrtasida oʻzaro hurmat, ishonch kabi munosabatlarning yuzaga chiqishiga imkoniyat yaratmoqda.

Nazariy manbalarga koʻra, audit - bunga vakolati boʻlgan shaxslar - auditor (auditorlik tashkilot)lar tomonidan, xoʻjalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotining ishonchliligi hamda moliya-xoʻjalik operatsiyalarini Oʻzbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi va boshqa meʼyoriy hujjatlarga muvofiq ekanligini aniqlash maqsadida mustaqil ekspertiza va tahlil qilish, buxgalteriya hisobi va boshqa moliyaviy hisobotlarga qoʻyiladigan talablarga muvofiqligini, ularning toʻliqligi va aniqligini tekshirish demakdir. Shuningdek, audit tarkibiga konsalting, yaʼni mijozlarga shartnomaga asosan xizmatlar koʻrsatish ham kiradi.

Tadqiqotlarimiz ko'rsatadiki, har qanday tushuncha, ayniqsa ilmiy atama o'zining mohiyatini ifodalovchi ta'rifga ega bo'lishi kerak. Auditorlik faoliyatining ta'rifi o'zining tarixiy taraqqiyot yo'lida turli manbalarda turlicha bayon qilingan. Masalan, professor M.M.Tulaxodjayevaning ta'rifiga ko'ra, "audit-bu mustaqil malakali mutaxassislar tomonidan korxonaning moliyaviy hisobotini yoki u bilan bog'liq moliyaviy axborotni ushbu hisobot yoki axborotning qonun va boshqa normativ hujjatlarga muvofiqlik darajasi to'g'risida xulosa chiqarish maqsadida tadqiq etilishidir"¹.

Professor H.N. Musayevning yozishicha, "Iqtisodiy adabiyotlarda "audit" so'zining mazmuni turlicha talqin qilingan. Ayrimlar "audit" so'zining mazmuni lotin tilidan olingan bo'lib, "u eshitadi" ma'nosini bildiradi desalar, boshqalar esa ushbu so'z ingliz tilidan olingan bo'lib, "u yordam beradi" degan ma'noga ega deb ta'kidlaydilar. Audit – bu "tekshirish", "tergov qilish" degan fikrlar ham bor. AQShning nufuzli iqtisodiy universitetlarida o'qitiladigan "Audit" (auditing) – daxlsiz xodim tomonidan axborotlarning belgilangan mezonlarga mosligini aniqlash va xolisona xulosa berish maqsadida xo'jalik tizimi to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va baholash jarayonidir. Bizning fikrimizcha, audit – bu muayyan vakolatlar berilgan shaxslar, ya'ni auditorlar tomonidan xo'jalik yuritayotgan subyektlar faoliyatlarining respublikada qabul qilingan qonun-qoidalarga muvofiqligini tekshirish yo'li bilan baholash va xolisona xulosalar berishdir"².

Iqtisodchi olimlarimiz tomonidan yaratilgan nazariy manbalarda "audit" tushunchalariga berilgan yuqorida keltirilgan ta'riflarni maqsadga muvofiq, hamda "audit" atamasining mazmun mohiyatini ochib beradi, deb hisoblaymiz. Ammo, bugungi kunda auditorlik faoliyatini xalqaro standartlar asosida tashkil etish ehtiyojining yazaga kelganligi, ushbu yo'nalishdagi ilmiy – nazariy asoslarni tadqiq etish va takomillashtirishni taqazo etadi.

Milliy iqtisodiyotimizda auditorlik faoliyati va auditorlik kasbining ta'rifi, O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunining yangi tahririda takomillashtirilgan tarzda quyidagicha ifodalangan, "**auditorlik faoliyati** - auditorlik tashkilotlarining auditorlik xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha tadbirkorlik faoliyati" bo'lib, "...auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va turdosh xizmatlar ko'rsatish bo'yicha auditorlik faoliyatini amalga oshiruvchi tijorat tashkiloti" deb ta'riflangan³. Aynan, ushbu Qonunning 4-bobining 27-moddasida auditorlik tashkiloti tavsiflangan bo'lib, unga ko'ra auditorlik tashkiloti o'zi haqidagi ma'lumotlar Auditorlik

¹ Tulaxodjayeva M.M. O'zbekiston Respublikasida moliyaviy nazorat tizimi. O'quv qo'llanma. -T.: 1996, 19 b.

² Musayev H.N. Audit. Darslik. -T.: 2003, 17-18 b.

³ O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyat to'g'risida"gi Qonuni. T.: 2021 yil 25 fevral, O'RQ-677-son, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.02.2021 y., 03/21/677/0155-son.

tashkilotlarining reyestriga kiritilgan sanadan e'tiboran auditorlik faoliyatini amalga oshirishga haqlidir. Auditorlik tashkiloti o'z faoliyatini amalga oshirishda mustaqildir. Auditorlik tashkiloti vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan tashkil etilishi mumkin emas. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari, shuningdek qonunchilikka muvofiq tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi taqiqlanadigan boshqa shaxslar auditorlik tashkilotining muassislari bo'lishi mumkin emas.

Aynan, ushbu holatlardan ham ko'rinadiki, moliyaviy nazoratda auditorlik faoliyati erkin iqtisodiyot talablariga mos keladi. Xususan, auditorlik faoliyatini tashkil etishda "auditor" tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, "Auditor" - auditorning malaka sertifikatiga ega bo'lgan jismoniy shaxs¹ bo'lib, u auditorlik tashkilotining shahtida tursa, yoki fuqorolik-huquqiy shakldagi shatnomasiga ega bo'lsagina auditorlik trekshiruviga jalb etilishi mumkin.

Shuningdek, auditor auditorlik tekshiruvini sifatsiz o'tkazganligi, tijorat sirini oshkor etganligi hamda boshqa hatti-harakatlari oqibatida auditorlik tashkilotiga zarar yetkazganligi uchun qonun hujjatlariga muvofiq auditorlik tashkiloti oldida javobgar bo'ladi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, "Auditorlar va auditorlik tashkiloti xodimlari auditorlik xizmatlari ko'rsatish jarayonida o'zlariga ma'lum bo'lib qolgan ma'lumotlarni o'ziga auditorlik xizmatlari ko'rsatilgan shaxslarning yozma roziligisiz oshkor qilishga hamda o'zgalarga berishga haqli emas"². Biroq tadqiqotlarimiz ko'rsatadiki, bugungi kunda milliy iqtisodiyotimizda nazariy va huquqiy asoslarda asosan tashqi auditorlik tekshiruvlarini xalqaro standartlar asosida tashkil etish borasidagi nazariy va uslubiy asoslarni takomillashtirish yuzasidan ishlar tashkil etilmoqda. Bizningcha, moliyaviy nazorat tizimida audit institutlarining mavqiyeni hamda raqobatbardoshligini oshirishda nafaraq tashqi balki, ixtisoslashgan audit xizmatlarini tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

XULOSA

Yuqorida qayd etilgan nazariy manbalarga asosan shuni xulosalash mumkinki, moliyaviy nazorat tizimida auditorlik faoliyatini eng samarali va ishonchli nazorat turi sifatida baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Biroq, moliyaviy nazorat tizimida audit institutlarini yanada kengaytirish va rivojlantirishda auditorlik faoliyatining ilmiy-nazariy asoslarini churroq tadqiq etish va uni takomillashtirish yuzasidan tadqiqotlar olib borish bugungi kun talabidir.

¹ O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyat to'g'risida"gi Qonuni, 3-moddasi. T.: 2021 yil 25 fevral, O'RQ-677-son, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.02.2021 y., 03/21/677/0155-son.

² O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyat to'g'risida"gi Qonuni, 8-modda. T.: 2021 yil 25 fevral, O'RQ-677-son, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.02.2021 y., 03/21/677/0155-son.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyat to'g'risida"gi Qonuni. T.: 2021 yil 25 fevral, O'RQ-677-son, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.02.2021 y., 03/21/677/0155-son.
2. Tulaxodjayeva M.M. O'zbekiston Respublikasida moliyaviy nazorat tizimi. O'quv qo'llanma. -T.: 1996, 19 b.
3. Musayev H.N. Audit. Darslik. -T.: 2003, 17-18 b.
4. Jo'raqulovna J.G. MOLİYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O'TISHNING TASHKILIY-ILMIY ASOSLARI //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – C. 216-221.
5. Jumayeva G.J., qizi Yakhshikulova M.T. ANALYSIS OF PROBLEMS IN ORGANIZING INTERNAL AUDIT IN JOINT STOCK COMPANIES //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 764-769.
6. Jumayeva G.J., qizi Sultonova M.O. SCIENTIFIC BASIS OF IMPROVING THE AUDIT OF FINANCIAL RESULTS IN BUSINESS ENTITIES //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 770-773.